

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BINO VA
INSHOOTLARNI BARPO ETISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN
MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida “Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi” fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi

1. Bino va inshootlar konstruksiyasi;
2. Ishlab chiqarish va fuqaro binolari konstruksiyalarini montaj qilish texnologiyasi;
3. Binolarning injenerlik kommunikatsiyalari;
4. Qurilish konstruksiyalari;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/ r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testla r soni
1.	Bino va inshootlar konstruksiyasi asosiy tushunchalar va qoidalar	Bino va inshootlarning konstruktiv elementlari, ularni oʻrnatish va montaj qilish usullari, montaj qilish elementlari, qurilish-montaj qilish jarayonlari va texnik vositalari koʻnikmalariga ega boʻladi.	10 ta
2.	Ishlab chiqarish va fuqaro binolari konstruksiyalarini montaj qilish texnologiyasi	Poydevorlarni qurish texnologiyasi, gʻisht-tosh terish ishlari texnologiyasi, qurilish konstruksiyalarini montaj qilish texnologiyasini asosiy qonun-qoidalari, sanoat, jamoat va turar-joy binolari konstruksiyalarini montaj qilish qoidalari, konstruksiyalarni qoliplash va armaturalash, konstruksiyalarni betonlash, tom qoplamalarni barpo etish texnologiyasi, gidroizolyatsion qoplamalarni bajarish texnologiyasi, pardozlash ishlari texnologiyasi, pol qoplamalarini barpo etish texnologiyasini bilish, farqlash va hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qilish koʻnikmalariga ega boʻladi.	10 ta
3.	Binolarning injenerlik kommunikatsiyalari	Binolarning injenerlik muhandislik kommunikatsiyalari, yer inshooti turlari, grunt ishlashda texnologik jarayon tarkibi, suvni chiqarib tashlash va grunt suvlari sathini pasaytirish, yer ishlarini bajarishda yordamchi jarayonlarni oʻrganadi, hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qilish koʻnikmalariga ega boʻladi.	10 ta
4.	Qurilish konstruksiyalarini qoliplash va armaturalash	Qoliplarning vazifasi va turlari, qolip jarayonlari texnologiyasi, armaturaning vazifasi va turlari, armatura ishlari tarkibi, payvandlash usullari, ishlarni bajarishda xavfsizlik qoidalariga jiddiy rioya qilish, qurilish jarayonlarini farqlash va amaliy vaziyatlarda tahlil qilish.	10 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. R.A.Norov “Qurilish jarayonlari texnologiyasi, qurilishni tashkil etish va rejalashtirish”. - Toshkent, 2019 y.

2. X.I.Yusupov, R.A.Norov, A.T.Ilyasov, I.N.Salimova, K.U.Tashxodjayeva “Qurilish jarayonlari texnologiyasi, bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi” - Toshkent, 2019 y.

3. A.M.Raximov, X.I.Yusupov, X.Xamidov, V.Rasulov, A.T.Ilyasov “Qurilish texnologiyasi” - Toshkent, 2019 y.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*